



JAHON LINGVISTIKASIDA BOLALARNING NUTQ OQITISHI BO'YICHA TADQIQOTLAR TAHLILI

Давлатова Х.У.

Andijon davlat chet tillar instituti.

Falsafa fanlari doktori. PhD,

Ingliz tilining nazariy jihatlarini kafedrasini o'qituvchisi

Эргашев Ш.

Andijon davlat chet tillar instituti Tilshunoslik fakulteti 2-kurs magistranti

Tayanch so'zlar: bolalar, tadqiqot, poliglot, oila, til, nutq, tafakkur, ong, faylasuf, antropolog.

Ключевые слова: дети, исследования, полиглот, семья, язык, речь, мышление, сознание, философ, антрополог.

Key words: children, research, polyglot, family, language, speech, thinking, consciousness, philosopher, anthropologist.

Kirish. Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabatning yangi shakllari paydo bo'lishi til va nutqni vujudga keltirdi, til esa, o'z navbatida, ongning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratdi. "Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg'u regulatori emas, balki har bir shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini to'g'ri amalga oshirishning asosiy manbai rolini bajara boshladi"[18]. Insoniy muloqotning asosida rekursiv fikrlash, g'oyalarni boshqa g'oyalar ichiga kiritish qobiliyati turadi. Ushbu qobiliyat qanday tuzilmaga ega ekanligi haqida ko'proq bilish bugungi kunda duch keladigan murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi[26].

Olimlarning tadqiqotlari natijasida insonda rekursiv gapirish va fikrlash qobiliyati tug'ma xarakterga ega ekani aniqlangan. Ammo bizning individual tillarimiz o'ziga xos, moslashuvchan vositalar bo'lib, ularning har biri o'zi rivojlangan muhit tomonidan shakllantiriladi va o'zgartiriladi[26].

Psixolog Maykl Korballis rekursiyaga quyidagicha ta'rif beradi: Rekursiya – bu g'oyalarni g'oyalar ichiga joylashtirish qobiliyatimizdir. U "Rekursiv ong: Inson tili, tafakkuri va sivilizatsiyasining kelib chiqishi" asarida rekursiv fikrlash



qobiliyati inson ongini boshqa jonzotlarnikidan ajratib turadigan asosiy xususiyat ekanligini aytadi[27].

Tadqiqotchi Merlin Donaldning ma'lumot berishicha, insonlarning fikrlashi, miya hajmi va fiziologiyasidagi o'zgarishlar miya rivolanishining tezlashishini talab qildi, tadqiqotchining fikriga ko'ra, buni miyaning "plastikligi" – uning funksional moslashishi bilan izohlash mumkin[26].

Asosiy qism. Nutqdan tashqi belgilarga o'tish, til rivojlanishining o'zi biologik o'zgarishlarni rag'batlantirgan va bu o'zgarishlar bizni yanada o'zgartiradigan qayta aloqa zanjirini keltirib chiqargan bo'lishi mumkin. Antropolog Jon Xouks tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, so'nggi 5000-10000 yil ichida inson genetikasidagi evolyutsion o'zgarishlar avvalgiga qaraganda 100 barobar tezdir[27].

Yuqoridagi nomlari keltirilgan olimlarning ishlarida insonlar nima haqida o'ylashlari va muloqotda shu o'ylanganni qanday ifodalashlari o'rtasida farq borligi aniqlandi. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkinki, bu ikki faoliyat o'rtasida qanday farq bor? Bizning fikrimizcha, biz – insonlar go'daklik vaqtlaridan boshlab, olam haqida aniq so'zlarni tushunishimizdan oldin, ularni qanday talaffuz qilishimiz haqida o'ylaymiz.

Insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishayotganda turli tillardan foydalanadilar. Bu tillar bir-biridan ko'p jihatdan farq qiladi. Ongni o'rganish jarayonida faylasuf, antropolog, tilshunos va psixologlar bir nechta qarama-qarshiliklarga duch keldilar. Ularni chuqur mulohaza qilishga majbur qilgan savollar quyidagilardan iborat edi: Biz muloqotga kirishayotgan tillarimiz dunyoqarashimiz, fikrlashimiz va hayot tarzimizni shakllantiradimi? Boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi insonlar tafakkur tarzi o'rtasidagi farq ularning turli til vakili bo'lgani sabablimi? Yangi tillarni o'rganish tafakkur tarzimizni o'zgartiradimi? Poliglotlar (ko'p tillarda so'zlashuvchilar) turli tillarda gaplashganda boshqacha fikr yuritadilarmi? Bu savollar yuzasidan yaqin vaqtlargacha oz miqdorda empirik ishlar olib borilgan. Uzoq vaqt davomida til tafakkurni shakllantirishi mumkinligi haqidagi g'oya farazligicha qolgan va ko'p hollarda noto'g'ri deb qaralgan. Yuqoridagi savollarga javob topish maqsadida Stendford universiteti tadqiqotchilari bel bog'laganlar. Ular izlanishlarining obykti sifatida Xitoy, Gretsiya, Chili, Indoneziya, Rossiya, Avstraliyadagi yashovchi xalqlarning tilini o'rganib, izlanishlari natijasida shunday xulosaga keldilar: "Turli tillarda so'zlashuvchilar haqiqatan ham boshqacha fikr yuritadilar va dunyoga boshqacha nigoh bilan qaraydilar"[27].

Garvard universiteti psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, biz muloqotga kirishayotgan tilimiz nafaqat fikrlashimizga, balki o'zimizning yashirish qobiliyatlarimizga ham ta'sir qiladi. Garvard universiteti aspiranti

Oludamini Ogunnaike o'z izlanishlari natijasidagi quyidagicha xulosaga keladi: "Boshqa tilda gapirish boshqa hayotga egalik qilish demakdir"[28].

Ko'plab olimlarning fikricha, til va tafakkur bir-birini taqozo qiladi. Ya'ni tafakkursiz til bo'lmaydi va tilsiz fikrlash mumkin emas. Ko'p yillik, hatto, ko'p asrlik izlanishlar, tajribalarga tayanib aytilgan bu fikrlarga biz ham qo'shilamiz.

Til muloqotning eng muhim vositasidir. Bundan tashqari til aloqa vositasi sifatida aniq tuzilishga ega bo'lishi va tizim sifatida esa elementlari birligini tashkil qilishi kerak. Zero, tilga aloqa vositasi deb o'rinli ta'rif berilgan. Biz til orqali turli millat vakillari bilan muloqot qilar ekanmiz, har bir millatning o'ziga xos va mos madaniyati, urf - odati, san'ati, xalqlarning kundalik yashash tarzidan xabardor bo'lamiz.

Tilshunoslikda nutq va bolalar nutqining ontogenezi, ularda nutq qobiliyatining shakllanishi, individual tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi va shaxslar tilidagi yoshga bog'liq o'zgarishlar tilshunoslikning ontolingvistika bo'limida o'rganib kelindi.

Ontolingvistika – tilshunoslikda nutqning ontogenezini o'rganadigan bo'limdir[19]. Ontogenez (yunoncha «ontos» – "mavjudlik" va «genesis» – "kelib chiqish, rivojlanish" ma'nolarini beradi) inson organizmi paydo bo'lgan vaqtdan boshlab, to hayotning oxirigacha individual rivojlanish bosqichiga aytiladi[19].

Nutq ontogenezi inson hayoti davomida sodir bo'ladigan va bolalar nutq qobiliyatining shakllanishi, keyingi rivojlanish, individual tilda yoshga bog'liq o'zgarishlarni o'z ichiga olgan jarayon sifatida tushuniladi.

Tilshunoslikda bolalar nutqini o'rganish bo'yicha ko'plab olimlar sermahsul izlanishlar olib borganlar va hozir ham bu tadqiqotlar davom etmoqda.

Uzoq vaqtlar davomida g'arb va sharq allomalarining olib borgan lingvistik tadqiqotlari o'zga davlatlarda va turli vaziyatlarda olib borilgan bo'lib, natijalari ham bir-biridan farq qilgan. Xususan, Yunonistonda yashab ijod etgan faylasuf Aristotel "Ritorika" asarida nutqqa alohida to'xtalgan va uni tashkil qiluvchi etos, logos, pafos tushunchalarini yoritgan[1]. Olimning ta'rifiga ko'ra, etos – etik pozitsiyaning inson axloqi bilan bog'liqligini, logos – suhbatdoshga ta'sir o'tkazuvchi ma'noni, pafos – muloqotning maqsadini va uning vaziyatiga to'g'ri keladigan iboralar turini izohlaydi. Aristotel notiq va tinglovchilarning munosabatida nozik psixologik izohlar va nutqda qo'llanilishi kerak bo'lgan yuqoridagi uchta sifatni alohida ta'kidlaydi. Uning ma'lumotiga ko'ra "Sofizm otasi" nomini olgan Gorgias o'ziga xos nutq uslubini yaratgan va o'rgatgan birinchi notiq hisoblangan[1]. Aristotel "Ritorika to'g'risi"dagi risolasida Gargiasga "keng tarqalgan istehzo" deb ta'rif bergan[1]. Gargias jiddiylikka hazil bilan, hazilga jiddiylik bilan javob berishni tavsiya qilganini ta'kidlaydi. U ritorik, siyosiy nutq, Yunoniston birligi haqidagi nutq, urushda halok bo'lgan afnaliklarning dafn



marosimi uchun maxsus nutq turlarini aytib o'tgan[1]. Gargias nutqning ruhdagi ta'sirini, giyohvand moddalarning tanadagi ta'siriga o'xshatadi[19].

Mashhur nemis filologi, faylasuf, tilshunos Vilgelm fon Gumboldt nutqiy faoliyat va tilning jamoa va shaxs munosabatlarini bog'lashga xizmat qilishi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Uning e'tirof etishicha, tillar xalqlar va shaxslarning ijod mahsuli, til nutqiy faoliyat jarayonida vujudga keladi[10]. Vilgelm fon Gumboldt til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini ular bajaradigan vazifalarda ko'radi. Uning muhim kashfiyoti, faoliyatning til dunyosiga ko'chishi haqidagi g'oyasidir.

Har bir fanning paydo bo'lgan va rivojlangan davri bo'lganidek, ontolingvistikaga ham Rossiyada tamal toshi qo'yilgan. Shu jumladan, XX asrning oxirlarida ontolingvistika bir nechta rivojlangan yosh ilmiy fanlar qatoriga kiradi. Ontolingvistika fanining asosiy obyekti nutqning faoliyatini o'rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. L. Vigotskiy birinchilardan bo'lib bola ruhiyati rivojlanishida nutqning ahamiyatini o'rgangan. Uning ta'kidlashicha, "nutq pcixik jarayonlar shakllanishida myhim ahamiyatga ega va oliy pcixologik fynksiyalarning rivojlanishini ...nutq ta'sirida amalga oshadigan pcixik jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlardir"[5]. Ontolingvistika terminining paydo bo'lishi 1997 yil Rossiya davlat universitetida bo'lib o'tgan konferensiya bilan bog'liqdir. S.N.Seytlin o'zining "Язык и ребёнок. Лингвистика детской речи" asarida bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy o'rganishning boshlanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelishligini to'g'risida ma'lumot beradi[5].

Bolalar nutqi, bolalarga xos turli xususiyatlar, asosan, shifokorlar, psixologlar, faylasuflar, o'qituvchilar tomonidan o'rganilgan. Bolalar nutqi hodisasi turli fan mutaxassislarining e'tiborida bo'lgan va tilshunoslar diqqatini tortgan. S.Seytlinning ma'lumot berishicha,[5] dastlab Rossiyada bolalar nutqi bo'yicha samarali izlanishlar olib borgan olimlardan L.S.Vigotskiy[4], A.N.Gvozdev[5], JI.B.Saxarniy[8], Germaniyada I.P.Amzarakova[2], S.Shahar[21], K.Vagner[22], Ch.Shtaynstraterlar[23] ushbu sohaning rivojiga muhim hissa qo'shdilar. Ularning izlanishlarini tahlil qilish natijasida, asosan, bolalarga xos ona tilini o'zlashtirishning umumiy qonuniyatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini, turli xil bolalar tomonidan assimiliyatsiya qilishning umumiy tomonlarini aniqlashganligini va bu yo'nalishda bir necha olimlar o'z farzandlarining nutqini rivojlantirish ustida amaliy ishlar o'tkazganligini ham ko'rish mumkin.

Jumladan, 1976 yilda nemis olimi D.Tideman o'g'lining nutqining muntazam kuzatganiga oid kitobini nashr etgan[24]. Olimning bu sohaga qo'shgan asosiy hissasi, kuzatishga katta ahamiyat bergani va ilmiy psixologiyani keng ma'noda qo'llab-quvvatlaydigan ongni rivojlantirishga xizmat qiladigan ish uslubini taklif qilganidadir. Uning faoliyati zamirida bolaning oila a'zosi sifatida qadrini va kelajak

avlodni jamiyatning haqiqiy hayotiy a'zosi sifatida qadr-qimmatini oshiradigan umumiy zamonaviy tendensiyani qo'llab-quvvatlagani yotadi, "chunki bolaning rivojlanishi jamiyatning rivojlanishiga bog'liqdir" deb ta'kidlaydi.

Yana bir bolalar nutqi tadqiqini o'z farzandi nutqi misolida o'rgangan ingliz olimi Charlz Darvin o'z o'g'lining nutqi yozuvlarini 1877 yilda nashr etgan[14]. Olimning bu maqolasi qisqa bo'lishiga qaramasdan, go'daklar nutqi ancha keng va batafsil bayon qilingan. Charlz Darvinning olib borgan tadqiqotlari natijasi o'laroq bolaning rivojlanayotgan ongiga fundamental tadqiqot obyekti sifatida qaraldi va bu bolalarning ona tilini qanday egallashiga oid ilmiy izlanishlar, katta yutuqlarga erishilishiga asos bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Darvin o'g'lining nutqi yozuvlari aks etgan kundaligi nashr etilgandan so'ng bolaning rivojlanayotgan aqliy qobiliyatlarini empirik o'rganish keng tarqalgan amaliyotga aylandi.

Natija va muhokamalar. O'z farzandlarining nutqini kuzatishlari asosida ontolingvistika sohasida sezilarni hissa qo'shgan olimlardan yana biri V.Stern bo'lib, uning farzandi nutqini kuzatishlari asosida yaratilgan, tilni egallashning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan kundaligi Rossiyada 1922 yilda nashr etilgan[13]. XX asrning boshlarida V.Leopold o'z qizining nutqini kundalik yozuvlari asosida "Ikki tilli bolaning nutqini rivojlantirish" asarini ommaga havola etdi[16]. S.Seytlinning ma'lumot berishicha, bu tadqiqotga taniqli psixologlar K. Budler, J. Piagetla bola nutqini o'rganishning dastlabki bosqichlarida o'z hissalarini qo'shdilar[11]. Yana bir olim, farzandi nutqi leksikasini yetti yil o'rgangan A.N.Gvozdevni keltirishimiz mumkin[6] va bu izlanishlar olim asarlarida asosiy o'rinni egallaydi[12].

S.N.Seytlinning mazkur yo'nalishga oid maqolasida ontolingvistika dunyo tilshunosligida keng tarqalib, G'arbda tilshunoslar o'rtasida keng miqyosda rivojlanish bosqichiga o'tganligi aytilgan[12]. U Yevropa tilshunosligining rus tilshunosligidan o'zib ketganini quyidagicha izohlaydi: "bolalar nutqi sohasidagi g'arb mutaxassislari bizni ortda qoldirganlarining asosiy sababi, materiallarni yig'ish texnikasi, eksperimentlarni ishlab chiqishda va eng muhimi, olingan materiallarni avtomatik tahlil qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishdadir". Biroq L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, N.X.Shvachkin, A.N.Gvozdev asarlari hanuzgacha butun dunyoda mashhur bo'lib, chet el tadqiqotchilari tomonidan keng qo'llanilmoqda[12].

Ontolingvistika fani bo'yicha Yevropa va AQSh universitetlarida darslik va o'quv qo'llanmalari mavjud bo'lib, u fan sifatida o'qitila boshlangan. S.Seytlinning ma'lumotiga ko'ra, XX asrning 60-70 yillarida psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi bilan nutq ontogoneziga qiziqish qaytadan paydo bo'ldi va shu bilan nutq ontogonezini o'rganish boshlandi[12]. D.Slobin[9], M.Baurmenlar[15] nutq ontogonezini o'rganishda Rossiyadagi mavjud tadqiqotlarga tayandilar. Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning barchasi o'z tadqiqotlarida rus olimlari



(L.S.Vigotskiy[17], A.R. Luriya[17], A.N.Gvozdev[7]) ishlarining ingliz tiliga tarjima qilingan variantlariga asoslanganlar.

Bolalar nutqi tadqiqi borasida G'arb tadqiqotchilari rossiyalik olimlardan bir necha o'n yillardan keyin ilgari ketdilar. Ular tadqiqotlarining jadallashishiga asosiy sabab rus tilshunoslari tomonidan yozilgan asarlarni maxsus ingliz tilidagi variantidan foydalanganligidadir. Ular olib borayotgan izlanishlarning aksariyati, rus tilshunosligiga tayanib yozilgan. Shu vaqtdan boshlab, Yevropa mamlakatlari va AQShda bolalar nutqini o'rganish bo'yicha maxsus muassasalar tashkil etildi. Bu esa tegishli adabiyotlarning ommaviy ravishda chiqarilishiga sabab bo'ldi. Ularning yutuqlarini biz, ona-bola tomonidan ishlab chiqilgan matnlarni avtomatik tahlil qilish uchun yangi dasturlarning yaratilganligida, ilmiy ma'lumotlarning ko'payganligida, jurnallar, konferensiyalar, seminarlar, yozgi maktablarda ko'rishimiz mumkin[12]. Bu bolalar nutqini o'rganish jarayonini tezlashtirishga imkon berdi[29].

Xulosa. Yuqorida ta'kidlanganidek, g'arb tilshunos olimlarining tadqiqotlari zahirida rus tilshunosligi nazariyasiga tayanib yaratilgan asarlari yotadi. Fikrimizning davomi, S.Seytlin tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib davom ettiramiz[12]. Biz buni 1960 yilda Garvard universitetida o'tkazilgan tilshunoslik konferensiyasi misolida ko'rishimiz mumkin. Bolalar nutqini o'rganish bo'yicha dunyodagi birinchi hisobotning tarixi shu konferensiya bilan bog'liq bo'lib, olimlarning asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Unda Amerikalik olim Dan Slobin, Gvozdev asarlari asosida yozilgan "Sovet bolalar nutqini o'rganish" asarini taqdimotini ishtirokchilarga havola etgan. Bu asarda olim Gvozdevning barcha kundaliklari misollarini asl nusxalarida va tarjimadagi misollaridan foydalanadi. Uning fikricha, bolalar talaffuzi nafaqat har bir til uchun, balki har bir bola uchun o'ziga xosdir, uni boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С. 9
2. Амзаракова И.П. Языковой мир немецкого ребенка младшего школьного возраста: дисс. ... док. филол. наук. – М, 2005. – 260 с.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 296 с.
4. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с.
5. Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – СПб.: Детство-Пресс, 2007. – 470 с.
6. Гвоздев А.Н. Развитие словарного запаса в первый год жизни ребенка. – Саратов: Саратовский Университет, 1990. – С. 17-94.
7. Гвоздев А.Н. Усвоение ребенком родного языка. / сб. «Детская речь», изд. Московского института экспериментальной психологии, 1927. – С. 50-114.
8. Сахарный Л.В. Тексты-примитивы и закономерности их порождения // Человеческий фактор в языке. Язык и речи / отв. ред. Е. Р. Кубрякова. – М.: Наука, 1991. – С. 221-237.
9. Слобин Д., Грин Дж. Психоллингвистика. – М.: Прогресс, 1976. – 350 с.
10. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2012. – Б. 200.
11. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – Тверь: Римис, 2008. – 448 с.
12. Цейтлин С.Н. Язык и ребенок. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000. – 240 с.



13. Штерн Вильям: <https://ru.wikipedia.org/wiki>
14. Darwin C (1839–1856): Notebook of Observations on the Darwin Children. Darwin Online Retrieved 12 February 2009, retrieved March 12, 2009, from <http://darwin-online.org.uk/content/frameset?itemID=CUL>
15. Bowerman Melissa, Levinson Stephen C. 2001. Language Acquisition and Conceptual Development. Cambridge: Cambridge University Press. 2014.
16. Leopold W. Bibliography of Child Language. – Evanston. Illinois, 1952. – 297 p.
17. Mecacci L., Yasnitsky A. (2011). Editorial Changes in the Three Russian Editions of Vygotsky's «Thinking and Speech» (1934, 1956, 1982): Towards Authoritative and Ultimate English Translation of the book // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека «Дубна». № 4. 2011. – С. 159-187. Электронная версия: // <http://www.psyanima. su/ journal/2011/4/2011n4a5/2011n4a5.pdf>
18. Goziyev E.G. Psixologiya (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 46.
19. Gorgias. «Encomium of Helen.» The Norton Anthology of Theory and Criticism. Eds. Vincent B. Leitch, et al. – New York: W.W. Norton & Company, 2001. – P. 30-33.
20. Proctor H. (2020). Psychologies in Revolution: Alexander Luria's 'Romantic Science' and Soviet Social History. Cham: Palgrave Macmillan.
21. Shahar S. Kindheit im Mittelalter. – Hamburg: Reinbeck, 1993. – 390 s.
22. Wagner K.R. Die Sprechsprache des Kindes. – Düsseldorf: Schwann, 1974. – 395 s.
23. Steinsträter Ch. Zur kindlichen Sprechhandlungsfähigkeit. – Frankfurt-am- Main: Peter Lang Verlag, 1990. – 231 s.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada jahon tilshunosligida bolalar nutqining o'rganilishiga doir tadqiqotlar tahlili haqida fikr yuritiladi va shu bilan birga mazkur sohada tadqiqot olib borgan olimlar ishlari o'rganilgan. Insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishayotganda turli tillardan foydalanadilar. Bu tillar bir-biridan ko'p jihatdan farq qiladi. Ongni o'rganish jarayonida faylasuf, antropolog, tilshunos va psixologlar bir nechta qarama-qarshiliklarga duch keldilar. Yangi tillarni o'rganish tafakkur tarzimizni o'zgartiradimi? Poliglotalar (ko'p tillarda so'zlashuvchilar) turli tillarda gaplashganda boshqacha fikr yuritadilarmi? Bu savollar yuzasidan yaqin vaqtlargacha oz miqdorda empirik ishlar olib borilgan. Uzoq vaqt davomida til tafakkurni shakllantirishi mumkinligi haqidagi g'oya farazligicha qolgan va ko'p hollarda noto'g'ri deb qaralgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается анализ исследований по изучению детской речи в мировой лингвистике, а также изучаются работы ученых, проводивших исследования в этой области. Люди используют разные языки для общения друг с другом. Эти языки во многом отличаются друг от друга. В процессе изучения сознания философы, антропологи, лингвисты и психологи столкнулись с рядом противоречий. Изменяет ли изучение новых языков наше мышление? Думают ли полиглоты (носители многих языков) по-разному, когда говорят на разных языках? До недавнего времени по этим вопросам было проведено мало эмпирической работы. В течение долгого времени идея о том, что язык может формировать мышление, выдвигалась и во многих случаях была ошибочной.

SUMMARY

This article examines the analysis of research on the study of children's speech in world linguistics, and also examines the work of scientists who have conducted research in this area. People use different languages to communicate with each other. These languages differ from each other in many ways. In the process of studying consciousness, philosophers, anthropologists, linguists and psychologists have encountered a number of contradictions. Does learning new languages change the way we think? Do polyglots (speakers of many languages) think differently when they speak different languages? Until recently, little empirical work had been done on these issues. For a long time, the idea that language can shape thinking has been put forward and, in many cases, has been proven wrong.